

## V. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlari

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

5.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

5.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin

## VI. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2. Shartnoma bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) o'z vaqtida bajarmaganlik uchun Ijrochi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiy summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Bajarylgan ishlar (xizmatlar) uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun amalga oshirilmagan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiy summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni ishni (xizmatni) bajarmaslik yoki to'lovni amalga oshirmaslik majburiyatidan ozod etmaydi.

## VII. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Tomonlar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha nizolar va kelishmovchiliklar ular o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi.

7.2. Agar nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

## VIII. Fors-major holatlari

8.1. Tomonlar xohish-irodasidan tashqari yuzaga keladigan oldindan bilib bo'lmaydigan va oldini olish imkoniyati bo'lmagan fors-major (yong'in, suv toshqini, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar) holatlarda tomonlar majburiyat bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida tomonlar ushbu holatlar yuzaga kelgandan so'ng darhol bir-birlarini xabardor qilishlari shart. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining ishonchligi vakolatli tashkilotning tegishli hujjati bilan tasdiqlanishi kerak, bunday holda ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati fors-major holati davomida qoldiriladi.

## IX. Yakuniy qoidalar

9.1. Ijrochining ichki tartib-qoidalariga Buyurtmachi xodimi tomonidan amal qilinmagan taqdirda, Ijrochi tomonidan Buyurtmachi yozma ravishda ogohlantiriladi hamda Buyurtmachi xodimi kursdan chetlashtiriladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan paytdan kuchga kiradi hamda 2022-yilning 31-dekabrigacha amal qiladi.9.4. Ushbu shartnoma har ikki tomon uchun bittadan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har ikki nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

## X. Tomonlarning rekvizitlari:

### IJROCHI:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi**

Manzil: Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib, 103

h/r: 20210000705257238001

INN: 307387233, OKED: 85590

Bank nomi: ATB Universalbank Toshkent shahar filiali, MFO: 00996

Tel: (95) 500-77-17

M.O'

I. Azimov

Yuriskonsult:

S. Mirazimov

### BUYURTMACHI:

Санаарқағас Кеңесінің Заңнамагері  
Баспагері  
Санаарқағас М. Кіссаров мәжілісі 2  
Тел 231 11 80 235 06 82.  
1000218 601 840 170 113 12 0 92 012  
УНН 206 919 238 00011 84112  
М.Б. Тоғжанов уақым 14 90 00014

M.O'

O.A. Kaniganiob

